

“QUROL” KOMPONENTLI FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR

Maripova Xurshidaxon Muzafarjonovna

Gumanitar yoʻnalishlar boʻyicha chet tillari kafedrası oʻqituvchisi, Fargʻona davlat universiteti

E-mail: hurshidamari@inbox.ru

Tel: +91 113 30 19

Annotatsiya

Maqolada “Qurol” komponentli frazeologik birliklarning lingvokulturologik tahlil qilinish, misollarda maʼno ifodasi ham koʻrsatib oʻtildi. Harbiy submadaniyat vakili moddiy dunyosining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri quroldir. Majoziy maʼnoda qurollar nomi boʻlgan frazeologik birliklar asosidagi maʼno vayrongarchilik yoki qirgʻin qurollariga doir gʻoyalar bilan cheklanmagan maʼnolarni qamrab oluvchi barqaror burilishlarning ramziy funksiyasini oʻzida mujassamlanishi misollarda namoyon boʻlishi koʻrsatiladi.

Tayanch soʻzlar

qurol, birliklar, maʼno, madaniyat, moddiy, komponent, harbiy.

ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ С КОМПОНЕНТОМ «ОРУЖИЕ»

Марипова Хуршидахон Музафаржоновна

Преподаватель кафедры иностранных языков гуманитарного факультета, Ферганский государственный университет

E-mail: hurshidamari@inbox.ru

Аннотация

В статье также на примерах показан лингвострановедческий анализ фразеологизмов с компонентом «Оружие». Оружие – одна из важнейших составляющих материального мира представителя военной субкультуры. На примерах показано, что значения, основанные на фразеологизмах, которые являются названиями оружия в переносном смысле, воплощают символическую функцию устойчивых оборотов, охватывающих смыслы, не ограничивающиеся представлениями об оружии поражения или массового поражения. разрушение.



Ключевые слова

оружие, подразделения, значение, культура, материал, составная часть, военный.

PHRASEOLOGICAL UNITS WITH "WEAPON" COMPONENT

Maripova Khurshidakhon Muzafarjonovna

Teacher of the Department of Foreign Languages in Humanities, Ferghana State University

E-mail: hurshidamari@inbox.ru

Annotation

In the article, the linguistic and cultural analysis of the phraseological units with the "Weapon" component was also shown in the examples. Weapons are one of the most important components of the material world of a representative of the military subculture. It is shown in the examples that the meaning based on the phraseological units, which are the names of the weapons in a figurative sense, embody the symbolic function of stable turns, which cover meanings not limited to the ideas of the weapons of destruction or mass destruction.

Key words: weapon, units, meaning, culture, material, component, military.

Xalq tili va madaniyati o'rtasidagi o'zaro ta'sirni o'rganish faqatgina mavhum ma'noga ega bo'lgan leksik va frazeologik birliklar tarkibidagi milliy o'ziga xos xususiyatlarning namoyon bo'lishini o'rganish bilan cheklanmaydi. Hayot, o'lim, taqdir, do'stlik, muhabbat, zamon haqida til orqali ifodalangan munosabatlar, shubhasiz, ma'lum bir millat vakili dunyoqarashi hamda umuminsoniyligining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlaydi. Atrofimizda sodir bo'layotgan siyosiy yoki siyosiy bo'lmagan voqea-hodisalarga nisbatan xalqlarning qarashlari turlichadir. Shunga qaramay, olamning lisoniy manzarasini shakllantirishda predmet semantikasiga ega bo'lgan birliklar ahamiyatini unutmaslik lozim.

V.Karasikning fikricha, muayyan predmet sohasini ochib berish etnik-madaniy xususiyatlarni majburiy aniqlash bilan bevosita va metaforik ifodalar orqali amalga oshiriladi [51;8]. Bunday birliklarni tahlil qilishda milliy komponentlar, shuningdek, tarixiy, geografik, adabiy, folklor ma'lumotlarini o'rganish farqlanadi.

Moddiy (ish qurollari, uy-ro'zg'or buyumlari, kiyim-kechak va boshqalar) va ma'naviy madaniyat (tarbiya) axloq, ilm-fan va din bir-biri bilan uzviy bog'liqdir. Ya'ni



moddiy olam ma'naviyatning asosi, madaniyat esa moddiy sohada amalga oshiriladi va tushuntiriladi[138;10-54].

Harbiy submadaniyat vakili moddiy dunyosining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri quroldir. Ibtidoiy tuzum davrida paydo bo'lgan har xil turdagi qurollar insonlar tomonidan jamiyat taraqqiyotining barcha bosqichlarda ishlatilgan, bu esa shaxsning tashqi dunyoda omon qolishi uchun zaif moslashuvi bilan izohlanib kelingan [138;10-54].

Qurol harbiy xizmatchining ajralmas hamrohi, jismoniy dunyosining bir qismi bo'libgina qolmay, balki etnik guruh axloqiy munosabatlarining o'ziga xos xususiyatlarini ham aks ettiradi.

Majoziy ma'noda qurollar nomi bo'lgan frazeologik birliklar asosidagi maxsus ma'no, madaniy ma'no vayrongarchilik yoki qirg'in qurollariga doir g'oyalari bilan cheklanmagan ma'nolarni qamrab oluvchi barqaror burilishlarning ramziy funksiyasini o'zida mujassamlaydi.


Shunday qilib, qurol – bu hujum yoki mudofaa uchun texnik jihatdan mos keladigan har qanday vosita, shuningdek, bunday vositaning yig'indisidir [138;127]. Demak, qurol tushunchasi harbiy sohaga oid so'zlarning asosiy birliklaridandir.

Qurol komponentiga oid frazeologik birliklarning semantikasini tahlil qilib, nemis madaniyatining bir qismi sifatida ahamiyatga ega bo'lgan armiya jamiyati a'zolarining ongida paydo bo'ladigan turli xil qurollar bilan bog'liq g'oyalarni ko'rib chiqamiz.

Shaxs ongida qurollar Qurolli Kuchlarga mansub urush ramzining ramziy timsoli sifatida qaraladi va bu qurol (die Waffe) komponentli frazeologik birliklarda o'z aksini topadi:

- die Waffe in die Hand geben – raqibiga o'ziga qarshi qurol bermiq;
- jm die Waffe aus der Hand schlagen – kimnidir yiqitmoq;
- jn mit seiner eigenen Waffe schlagen – so'zma-so'z, kimnidir shaxsiy quroli bilan urmoq;
- zur Waffe greifen / zu den Waffen greifen – qurolni qo'lga olmoq, urush boshlamoq;
- die Waffen ruhn, des Kriegs Stürme schweigen (F.Shiller she'ri, "Jungfrau von Orleans") – qurollar oladi dam, jimdir urush bo'roni ;
- Waffen führen – qurol bilan jang qilmoq;
- die Waffen stecken – taslim bo'lmoq;
- in Waffen sein – qurollanmoq;
- mit den Waffen klirren – urushni tahdid qilmoq [4].





Ko'rinadiki, nemis tilida "kurashmoq" yoki "taslim bo'lmoq" tushunchalari ham qurol komponenti ishtirokida hosil qilinadi. Qurol harbiy kishilar nazarida hayot yoki o'lim, ya'ni kurashish yoki taslim bo'lish ma'nosini anglatadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Бинович Л.Э., Гришин Н.Н. Немецко-русский фразеологический словарь.– М.: Русский язык, 1975. – 1975.
2. Скачкова Л.В. Фразеологизмы с компонентом «военное оружие» (эмпирический и аксиологический уровни информации), «Артефакты»: Дис. ... канд. филол. наук. – Майкоп, 2019. – 127 с.
3. Карасик В.И. Лингвокультурный типаж: к определению понятия // Аксиологическая лингвистика: лингвокультурные типаж: сб. науч. тр. / В.И.Карасик, О.А.Дмитриева; под ред. В. И. Карасика. – Волгоград: Парадигма, 2005. – 310 с.

